



UO'K 633.51:631.52:631.53

## G'O'ZANING *G.BARBADENSE* L. TURIGA MANSUB ERTAPISHAR, HOSILDORLIGI VA TOLA CHIQIMI YUQORI NAVLARINI YARATISH UCHUN OTA-ONA JUFTLARINI TANLASH

**Boyto'rayeva Maftuna Baxtiyor qizi** 

Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

e-mail: [boytorayevamaftuna7@gmail.com](mailto:boytorayevamaftuna7@gmail.com)

**Islamov Ilxom Turdiyevich** 

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch doktoranti

e-mail: [ilxom2401@gmail.com](mailto:ilxom2401@gmail.com)

**Qarshiyeva Umida Shukurovna** 

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

**Annotatsiya.** Ushbu ishda *Gossypium barbadense* L. turiga mansub namunalar orasida ertapisharlik, yuqori hosildorlik va tola chiqimi kabi xo'jalik jihatidan muhim belgilar bo'yicha istiqbolli ota-ona shakllarni tanlash masalalari o'rganildi. Tadqiqotlar dala sharoitida olib borilib, o'sish davri, ko'sak soni, tola chiqimi va hosildorlik kabi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Natijalar asosida seleksiya uchun genetik jihatdan istiqbolli ota-ona juftlari aniqlanib, yangi navlar yaratish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** *Gossypium barbadense* L., ertapisharlik, hosildorlik, tola chiqimi, seleksiya, duragaylash, ota-ona jufti.

**Аннотация.** В данной работе изучен процесс отбора перспективных родительских форм у образцов вида *Gossypium barbadense* L. по таким хозяйственно ценным признакам, как раннеспелость, высокая урожайность и выход волокна. Исследования проводились в полевых условиях, где были проанализированы основные показатели-продолжительность вегетационного периода, количество коробочек, выход волокна и урожайность. На основе полученных данных определены генетически перспективные родительские пары, рекомендованные для использования в селекционной работе по созданию новых, высокоурожайных и раннеспелых сортов.

**Ключевые слова:** *Gossypium barbadense* L., скороспелость, урожайность, выход волокна, селекция, гибридизация, родительская пара.



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

**Abstract.** This study investigates the selection of promising parental lines of *Gossypium barbadense* L. based on economically valuable traits such as earliness, high yield, and fiber output. The experiments were conducted under field conditions, where main agronomic traits-vegetation period length, number of bolls, fiber percentage, and yield-were analyzed. Based on the obtained results, genetically promising parental combinations were identified and recommended for breeding programs aimed at developing early-maturing and high-yielding cotton varieties.

**Keywords:** *Gossypium barbadense* L., early-maturing, yielding, fiber output, selection, hybrid, parental pairs.

### KIRISH

Ingichka tolali paxta yuqori sifatli tola beruvchi qimmatli texnik ekin hisoblanadi. U yengil sanoat uchun muhim xomashyo bo'lib, mamlakatimiz iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega. Shu sababli bunday paxta navlarini o'rganish va istiqbolli namunalarni aniqlash dolzarb vazifalardan biridir.

**Tadqiqotning maqsadi** *G. barbadense* L. turiga mansub namunalar orasidan erta pishar, hosildorligi va tola chiqimi yuqori ota-ona shakllarni tanlashdan iborat.

### MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqot ishlari 2025-yil Surxondaryo viloyati Termiz tumanida joylashgan Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutining tajriba dalalarida olib borildi. Turli genetik kelib chiqishga ega namunalar morfologik, fenologik va xo'jalik belgilariga ko'ra o'rganildi.

### NATIJALAR VA MUNOZARA

Tola chiqimi bo'yicha kolleksiya namunalari ichida andoza Surxon-14 naviga nisbatan Tadla-18 33,7%, VIR-130 TV 33,5%, 8763-u 32,7% va Giza-3 33,2% namunalarda tola chiqimi yuqori natijani tashkil qildi. Qolgan namunalar andoza navga nisbatan past ko'rsatkich qayd etdilar. Jumladan eng past ko'rsatkichlarga Pima-1277 21,8%, Ash-143-B 23,3%, P-50 24,0% va T-7 24,1% namunalari andoza navga nisbatan past ko'rsatkich qayd qildi.

Tolaning yana bir muhim ko'rsatkichlaridan biri tola uzunligi bo'lib, kolleksiya namunalari laboratoriya tahlillariga ko'ra andoza Surxon-14 naviga nisbatan Tadla-16 navida tola uzunligi 41,2 mm (+6 mm yuqori), VIR-109TV navida tola uzunligi 40,8 mm, (+5,6 mm yuqori), Pima-1277 navida tola uzunligi 40,6 mm (+5,4 mm yuqori), Ash-161-B va 4623 iz zagori 0669 navlarida 40,5 mm, navida tola uzunligi (+5,3 mm yuqori), Ash 238-B namunasida 40,4 mm (+5,2 mm yuqori), Giza-45 navida 40,3 mm (+5,1mm yuqori), Ash-239-B navida tola uzunligi 40,1 mm (+4,9 mm yuqori) aniqlandi.

Andoza navga nisbatan tola uzunligi bo'yicha past ko'rsatkichli namunalar ham aniqlandi. Jumladan, Tadla-18 27,4 namunasida -7,8 mm, 275 iztime 27,4 mm





## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

namunasida esa -6,5 mm, P-50 namunasida 29,4 mm yoki -5,8 mm, T-7 raqamli namunasida 29,7 mm yoki -5,5 mm ko'rsatkich qayd etdilar. (1- jadval)

1-jadval

### Kolleksiya namunalarida tola chiqimi va uzunligini ko'rsatkichlari aniqlash (2025-yil).

№	Nav va namunalar ning nomi	Kolleksion namunalar keltirilgan davlatlar nomi	Tola chiqimi, %	Andoza navdan farqi (+,-)	Tola uzunligi, mm	Andoza navdan farqi (+,-)
1	Surxon-8	O'zbekiston	28	-4	36,1	+0,9
2	Termiz-31	O'zbekiston	-	-	-	-
3	Surxon-10	O'zbekiston	-	-	-	-
4	P-50	Peru	24	-8	29,4	-5,8
5	Ash-167B967i	Turkmaniston	25,4	-6,6	35,3	+0,1
6	Ash-11	Turkmaniston	-	-	-	-
7	Ash-239B	Turkmaniston	26,6	-5,4	40,1	+4,9
8	Ormanskiy	Turkmaniston	27,5	-4,5	39,4	+4,2
9	Pima-1277	Peru	28	-4	40,6	+5,4
10	Ash-166-B	Turkmaniston	24,4	-7,6	39,2	+4,0
11	<b>Surxon-14</b>	<b>O'zbekiston</b>	32	-	35,2	-
12	Ash-143-B	Turkmaniston	23,3	-8,7	38,9	+3,7
13	Ash-238-B	Turkmaniston	28,6	-3,4	40,4	+5,2
14	8173-u	Turkmaniston	27,2	-4,8	39,7	+4,5
15	Ash-115-B	Turkmaniston	30,1	-1,9	35,3	+0,1
16	9647-u	Turkmaniston	24,6	-7,4	36,7	+1,5
17	Ash-161-B	Turkmaniston	30,5	-1,5	40,5	+5,3
18	T-7	O'zbekiston	24,1	-7,9	29,7	-5,5
19	8704-u	Turkmaniston	28,6	-3,4	35,5	+0,3
20	Tadla-18	Maroko	33,7	+1,7	27,4	-7,8
21	Tadla-16	Maroko	27,8	-4,2	41,2	+6
22	FB-20	Maroko	28,8	-3,2	33,2	-2
23	Tadla-29	Maroko	29,2	-2,8	33,4	-1,8
24	Rekri-59	Aljir	28,8	-3,2	38,1	+2,9
25	Karnak-55	Aljir	28,8	-3,2	33,7	-1,5
26	L-299738	Aljir	28,1	-3,9	35,2	-
27	8813-u	Turkmaniston	26,2	-5,8	33	-2,2
28	L-6009	O'zbekiston	27,0	-5	34	-1,2
29	C-6030	Turkmaniston	26,7	-5,3	34,6	-0,6
30	8763-u	O'zbekiston	32,7	+0,7	37,9	+2,9



## AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

№	Nav va namunalarning nomi	Kolleksion namunalarning keltirilgan davlatlar nomi	Tola chiqimi, %	Andoza navdan farqi (+,-)	Tola uzunligi, mm	Andoza navdan farqi (+,-)
31	8763-u	Turkmaniston	27,4	-4,6	35,9	+0,7
32	L-2u3	O'zbekiston	32,0	-	35,2	-
33	5904-B	O'zbekiston	26,3	-5,7	37,7	+2,5
34	VIR-119 TV	O'zbekiston	28,8	-3,2	37,7	+2,5
35	VIR-130 TV	O'zbekiston	33,5	+1,5	36,2	+1
36	VIR-36 TV	O'zbekiston	25,4	-6,6	40,2	+5
37	VIR-41 TV	O'zbekiston	27,8	-4,2	34,6	+0,6
38	VIR-109 TV	O'zbekiston	28,2	-3,8	40,8	+5,6
39	Pima-1277	AQSH	21,8	-10,2	36,5	+1,3
40	Sujata	Hindiston	28,2	-3,8	37,5	+2,3
41	Pima-1277	Peru	28,2	-3,8	37,3	+2,1
42	4623 iz zagori 0669	Turkmaniston	28,7	-3,3	40,5	+5,3
43	9075 iz Maarad	Turkmaniston	27,6	-4,4	37,4	+2,2
44	Sakellarids	Misir	30,1	-1,9	35,1	-0,1
45	4729-u	Turkmaniston	25	-7	35,0	-0,2
46	Gure4fv135+Wineet	Trinidad va Tobago	25	-7	38,5	+3,3
47	Maaraad x Sakkoz	Misir	28,1	-3,9	37,2	+2
48	10.005	Turkmaniston	-	-	-	-
49	275 iz time	Turkmaniston	28	-4	28,7	-6,5
50	Giza-45	Misir	30	-2	40,3	+5,1
51	Giza-3	Misir	33,2	+1,2	34,6	-0,6

**XULOSA**

Tola chiqimi bo'yicha kolleksiya namunalari ichida andoza Surxon-14 naviga nisbatan Tadla-18 33,7%, VIR-130 TV 33,5%, 8763-u 32,7% va Giza-3 33,2% namunalarda tola chiqimi yuqori natijani tashkil etgan. Qolgan namunalarning andoza navga nisbatan past ko'rsatkich qayd etdilar. Jumladan eng past ko'rsatkichlarga Pima-1277 21,8%, Ash-143-B 23,3%, P-50 24,0% va T-7 24,1% namunalari andoza navga nisbatan past ko'rsatkichlarga ega bo'ldilar.

Demak xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "VIR-109TB", Tadla-18, 8763-u, "Ash239B", "Pima-1277", "Rekri-55", "VIR-36TB", VIR-130 TV, "Ormanskiy", "Tadla-16", "4623 iz zagori 0669", "Gure4fv135+Wineet" va "Giza-3" navlarida ertaroq pishganligi, hosildorligi va tola chiqim yuqori ekanligi aniqlandi.

**ADABIYOTLAR**

1. A. Siddiqov Genetik jihatdan kelib chiqishi turlicha bo'lgan g'o'za navlarini chatishtirishda asosiy xo'jalik belgilarining irsiylanishi. //O'zG'SUITI ning ilmiy asarlar to'plami. -Toshkent, 2002. - B. 143-145.

2. A. Ya. Boboyev, Kim R.G., Amanturdiyev A.G. G'o'zaning F<sub>2</sub> avlodida tezpisharlik belgilarining boshqa xo'jalik uchun qimmatli belgilar bilan o'zaro bog'lanishi //G'o'za genetikasi, seleksiyasi, urug'chiligi va bedachilik to'plami. - Toshkent, 2000.- B. 50-56.

3. A. Narimanov, J. Abduraimov G'o'za navlarini to'g'ri joylashtirish mo'l hosil garovidir O'zbekiston Qishloq Xo'jaligi 2017 y 6-7 bb.

4. B. Mamarahimov G'o'za seleksiyasi va urug'chiligida ayrim xo'jalik belgilarning o'zaro bog'liqligi. //Agro ilm. -Toshkent,2012. -3 (23)-son. -9b.

5. B. X. Amanov, F. R. Abdiyev *G.barbadense L.* g'o'zada tola uzunligi va tola chiqimini oshirishga xizmat qiluvchi yangi donolar olish. //“G'o'za seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalarining dolzarb muammolari hamda uni rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.-Toshkent, 2017. -B.105-107.

6. B. X. Amanov , Ernazarova Z.A., Nabiev N. *G.barbadense L.* turining turichi F<sub>1</sub>,F<sub>2</sub> duragaylarida tola uzunligining irsiylanishi. // G'o'za, beda seleksiyasi va urug'chiligini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslari. Respublika ilmiy - amaliy anjumani to'plami.-Toshkent, 2009. -B. 23-25.